

MOLIYAVIY NAZORAT TURLARI VA ULARNI SAMARALI TASHKIL ETISH YO'LLARI

Asamiddinov Erkin Ziyodillayevich

Bank-Moliya akademiyasi tinglovchisi

Annotatsiya. Maqola mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar natijasida mamlakat moliya tizimini, xususan, davlat moliyasi sohasini tubdan isloh qilish, budjet tizimi budjetlari mablag'larining samarali, oqilona va aniq maqsadlarga sarflanishini ta'minlash maqsadida davlat moliyaviy nazorati tizimida amalga oshirilgan ishlarning joriy holati tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar: Moliyaviy nazorat, Davlat budjeti, budjet tizimi budjetlari mablag'lari, davlat moliyaviy nazorati, kameral nazorat.

Аннотация. В статье представлены направления по коренному реформированию финансовой системы страны, в частности сферы государственных финансов, осуществляемым в нашей стране широкомасштабным реформам, анализу текущего состояния и дальнейшему выполнению задач, поставленных в системе государственного финансового контроля в целях обеспечения эффективного, рационального и целевого расходования средств бюджетов бюджетной системы.

Ключевые слова: финансовый контроль, Государственный бюджет, средства бюджетов бюджетной системы, государственный финансовый контроль, камеральный контроль.

Abstract. This article examines the modernization of the economy as a result of large-scale reforms in our country, the radical reform of the state finance sector, which is considered the main link of the country's financial system, and the provision of effective, rational and specific spending of the funds of the budget system. Also, the analysis of the work carried out in the state financial control system is presented.

Key words: Financial control, Budget Code, state budget, budget funds of the budget system, state financial control, cameral control.

Moliyaviy nazorat iqtisodiy kategoriya sifatida moliyaga ob'yektiv xos bo'lgan nazorat xususiyatining amalga namoyon bo'lishidir. Moliyaviy nazorat davlat moliyaviy siyosatini o'tkazilishini ta'minlovchi davlat nazoratining muxim bir turlaridan biridir. Bir tomondan, moliyaviy nazorat moliyani boshqarishning yakuniy bosqichi hisoblanadi, boshqa tomondan esa, uni samarali boshqarishning zarur sharti bo'lib xizmat qiladi.

Hozirgi kunda davlat moliyaviy nazorati sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida zamonaviy jahon andozalariga va talablariga mos keladigan moliya tizimi hamda bozor infratuzilmasi "Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi" talablariga mos ravishda shakllantirilmoqda, davlat moliya sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan qator qonunchilik tashabbuslari va ulardan kelib chiquvchi muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek - "Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolish, jumladan, Davlat budjeti barcha darajada mutanosib, milliy valyuta va ichki bozordagi narx darajasi barqaror bo'lishini ta'minlash - eng muhim ustuvor vazifamizdir"¹

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustda "2020 -2024-yillarda O'zbekiston Respublikasi davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 506-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qarorda "davlat moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini va natijadorligini oshirish maqsadida xalqaro standartlarga mos ichki nazorat va audit xizmatini, shuningdek, lozim darajadagi moliyaviy nazoratni amaliyotga joriy etish" masalalari jiddiy e'tibor qaratish belgilanganligi, yuqoridagi fikrlarimizga isbot bo'la oladi.

Moliyaviy nazorat samaradorligi uni amalga oshirishning turlari, shakllari va usullari bilan ta'minlanadi. Moliyaviy nazorat turli mezonlar bo'yicha shartli ravishda tasniflanishi mumkin.

Moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi sub'yektlarga ko'ra uning quyidagi turlari mavjud:

- umumdavlat moliyaviy nazorati;
- idoraviy moliyaviy nazorat;
- xo'jalik ichidagi moliyaviy nazorat;
- jamoatchilik moliyaviy nazorati;
- mustaqil moliyaviy nazorat.

Umumdavlat moliyaviy nazorati qonun chiqaruvchi organlar, ijrochi organlar (Oliy majlis, Vazirlar Mahkamasini) tomonidan amalga oshiriladi. Shuningdek, davlat tomonidan tashkil etilgan maxsus vakolatli organlar (Hisob palatasi, Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasi va boshqalar) tomonidan amalga oshiriladi. Davlat moliyaviy nazoratining asosiy maqsadi daromad olish va davlat mablag'larini sarflashda davlat va jamiyat manfaatlarini ta'minlashdan iborat.

Ushbu nazoratning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- pul mablag'lari va moddiy boyliklarni talon-taroj qilinishi va kamomadlarga yo'l qo'yilish holatlarini, xo'jasizlik va boshqa qonun buzilishlarini, moliyaviy intizom buzilishlarini aniqlash,
- ularni kelib chiqish shart-sharoiti va sabablarini o'rganish, bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;
- aybdor shaxslar tomonidan etkazilgan zararni qoplash bo'yicha choralar ko'rish va h.k.

¹ Sh.M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza

Amaliyotda umumdavlat moliyaviy nazorati respublika va mahalliy darajada o'tkaziladi:

➤ respublika darajasida – O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetining, davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining va respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari jamg'armalarining shakllantirilishi hamda ijro etilishi ustidan;

➤ mahalliy darajada – Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetidan, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlaridan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari jamg'armalarining shakllantirilishi hamda ijro etilishi ustidan amalga oshiriladi.

Idoraviy (mahkamaviy) moliyaviy nazorat vazirlik-larning nazorat organlari va mahalliy hokimiyat organlarining bo'limlari tomonidan ularga bo'ysunuvchi korxonalar, tashkilot va muassasalarning ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatini nazorat qilishga qaratilgan.

Xo'jalik ichidagi (ichki) moliyaviy nazorat korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning moliyaviy xizmatlari, xususan buxgalteriya, moliya bo'limlari, ichki audit xizmatlari tomonidan amalga oshiriladi. Moliyaviy nazorat ob'ekti bo'lib korxonalar va uning tarkibiy bo'linmalari (tsexlar, bo'limlar, bo'linmalar va filiallar)ning ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyati hisoblanadi.


Jamoatchilik moliyaviy nazorati ixtiyoriylik va beg'arazlik asosida guruhlar, alohida shaxslar (mutaxassislar) va nodavlat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. Nazorat ob'ekti tekshiruvchilarning oldilariga qo'yilgan aniq maqsadlariga bog'liq ravishda belgilanadi. Mamlakatimizda jamoatchilik nazorati

«Jamoatchilik nazorati to'g'risida»gi qonunga asosan amalga oshiriladi. Jamoatchilik moliyaviy nazoratning ob'ekti bo'lib davlat moliyaviy organlari va ularning mansabdor shaxslarining o'zlariga qonunchilik bilan yuklatilgan majburiyatlarni ijro etishi bilan bog'liq moliyaviy faoliyati hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, shuningdek qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro'yxatga olingan nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari jamoatchilik nazorati sub'yektlaridir.

Mustaqil moliyaviy nazorat maxsus organlar: auditorlik firmalari va boshqa xizmatlar tomonidan o'tkaziladi. Auditorlik faoliyatining asosiy maqsadi tekshirilayotgan sub'yektning moliyaviy hisobotining ishonchliligi buyicha xulosa berish hamda moliyaviy bozorga ishonchli axbarot berishni ta'minlash iborat.

Moliyaviy nazoratning ahamiyati shundan iboratki, uning yordamida birinchidan, davlat va jamoat tashkilotlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fuqarolar tomonidan o'z moliyaviy faoliyatlarida huquqiy tartibga rioya etilishini kuzatib borish; ikkinchidan, amalga oshirilayotgan moliyaviy harakatlarning iqtisodiy asoslanganligi va samaradorligini, bu harakatlarning davlat oldida turgan vazifalarga muvofiq kelishini tekshirish orqali amalga oshiriladi. Shunday qilib,

moliyaviy nazorat moliyaviy faoliyatni amalga oshirish paytida qonunchilikka rioya etish, harakatlarni maqsadga muvofiqligini ta'minlashning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi.




1-rasm. Moliyaviy nazorat obyektlari

Bu nazorat davlat moliyaviy resurslarini shakllantirish, ularning to'liq va o'z vaqtida tushib turishi va ulardan maqsadli foydalanish bilan bog'liq bo'lgan pul resurslari harakatining barcha kanallariga tegishli hisoblanadi. Bu narsa, eng avvalo, barcha darajalardagi budjetlar va nobudjet fondlarni ishlab chiqish, muhokama qilish, tasdiqlash va ijro etish, korxonalar va tashkilotlar, banklar va moliyaviy korporatsiyalarning moliyaviy faoliyati ustidan nazoratni anglatadi.

Davlat moliyaviy nazorat obyektlariga respublika va mahalliy budjetlar, budjet mablag'larini taqsimlovchilar, davlat maqsadli jamg'armalari, budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari kiradi. Moliyaviy nazoratning kerakli va samarali turi yuqoridagi obyektlarida qo'llaniladi.

Shu o'rinda, Davlat moliyaviy nazorati tashkilotlari tomonidan 2017–2021-yillarda olib borilgan nazorat ishlarining tahliliga e'tibor qaratamiz



2 – rasm. 2017–2021-yillarda budjet intizomining buzilishi natijasida budjet mablag'larining noqonuniy sarflanishi bo'yicha ko'rsatkichlar dinamikasi²

Budjet intizomining buzilishi va boshqa noqonuniy xarajatlarni oldini olish maqsadida davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi tomonidan 2017-yilda 11 510 ta tadbir o'tkazilib, 534,1 mlrd. so'mlik, 2018-yilda amalga oshirilgan 7047 ta tadbir natijasida 539,3 mlrd. so'mlik, 2019-yilda o'tkazilgan 8074 ta tadbirda 142,6 mlrd. so'mlik, 2020-yilda 4729 ta tadbir o'tkazilib 246,0 mlrd. so'mlik, 2021-yilda 7133 ta tadbir natijasida bu ko'rsatkich 1072,1 mlrd. so'mlik budjet mablag'larining noqonuniy ishlatilganligi aniqlangan. 2021-yildagi 1072,1 mlrd. so'mlik budjet kamomadining 931,2 mlrd. so'mi yoki 86,9 foizi budjetga tiklanishi ta'minlangan. Mazkur aniqlangan holatlar yuzasidan budjet mablag'larini qonuniy sarflagan yoki xato va kamchilikka yo'l qo'ygan shaxslarga nisbatan tegishli tartibda qonuniy choralar ko'rilgan.

Binobarin, moliyaviy nazorat uslubini kuzatish, qiyoslash, taxlil qilish, olingan natijalarni umumlashtirish, ulardan bir butun xulosa chiqarish, ayrim faktlardan umumiy xulosaga kelish va uiumiy holatdan xususiy xulosalarga kelishvi o'z ichiga olgan o'ziga xos uslubiy yo'sinlar, yo'l va vositalar yordamida moliya-iqtisodiy axborotni va nazorat ob'ektshshng xaqiqiy holatini o'zaro bog'liklikda o'rganish deb tushunish mumkin.

Endi esa, 2018–2021-yillarda kameral nazoratni amalga oshirish natijasida yuzaga kelgan holat to'g'risidagi ma'lumotlarga e'tibor qaratamiz: 2018-yilda 1435 ta nazorat tadbiri o'tkazilib 25 107,0 mln. so'mlik, 2019-yilda 1250 ta tadbir natijasida 59 178,0 mln. so'mlik, 2020-yilda 168 ta nazorat tadbiri tashkil etilib, 9 491,0 mln. so'mlik shubhali xarajatlar aniqlandi. 2021-yilda Davlat moliyaviy nazorati departamenti tomonidan 593 ta kameral nazorat tadbiri tashkil etildi

² www.mf.uz O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

hamda ushbu tadbirlar natijasida aniqlangan moliyaviy xato va kamchiliklar tufayli 105 029,0 mln. so'mlik budjet mablag'lar asossiz sarflangani ma'lum bo'ldi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasida davlat byudjeti mablag'laridan foydalanishning moliyaviy nazoratini olib boruvchi organlar tomonidan belgilangan maqsadlarning bajarilishi uchun ular faoliyatida mustaqillik, xolislik va oshkoralik tamoyillariga mos, ishonchli faoliyat ko'rsatadigan nazorat tizimini yaratish lozim. Bugungi kunda mamlakatimizda budjet tizimi budjetlari daromadlarini shakllantirishda hamda ushbu budjetlarning mablag'larini samarali, oqilona va aniq maqsadlarga sarflash, budjet intizomiga qat'iy rioya qilinishini ta'minlash hamda budjet qonunchiligi profilaktikasi ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida davlat moliyasini boshqarish sohasida ko'plab amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida shuni ta'kidlash joizki, davlat moliyasini boshqarishda davlat moliyaviy nazorat organlarining o'rnini va roli muhim ahamiyatga ega. Chunki, nazorat bor joyda o'sish va samaradorlik bo'lishi aniq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. – T: “Noshir”, 2012. – 712 bet.
2. Nurmuxamedova B. Moliya. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisod-moliya, 2017-y.
3. Nurmuxamedova B. Davlat budjeti. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisod-moliya, 2017-y.
4. Iqtisodiyotni barqarorligini ta'minlash bo'yicha asosiy yo'nalishlar belgilandi.// “Xalq so'zi”, 10.06.2020-y, № 122.
5. Hakimov N.N. Davlat moliya tizimida davlat moliyaviy nazoratining ahamiyati va uni amalga oshirish mexanizmlari. – “Moliya” ilmiy jurnali, 2022-yil, 2-son.
6. www.mf.uz O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy sayti ma'lumotlari.
7. www.stat.uz O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasining rasmiy sayti ma'lumotlari.
8. www.lex.uz axborot portali.